

2. Антимирова В.В. Лексико-семантические и деривационные характеристики русской лингвистической терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук – Краснодар, 2018. –198 с.
3. Cabre M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications / Ed. Juan C. Sager / - Amsterdam: Benjamins, 1998.

TOPONIMLARNI QIYOSIY-FUNKSIONAL TADQIQ ETISHDA FOYDALANILGAN LINGVISTIK METODLAR

R.Asadov SamDCHTI dotsent.

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimlarning ingliz va o‘zbek tillari matnidagi sintaktik o‘rni, komponentlar orasidagi sintaktik munosabatlarga asoslangan differensial sintaktik va differensial sintaktik-semantik xususiyatlar qiyosiy va tipologik jihatdan o‘rganiladi. Matndagi sintaktik birliklarni sintaksislarga bo‘lish yo‘li bilan tahlil qilishda, eng avvalo, kategorial differensial sintaktik-semantik xususiyatlar aniqlanadi va ular asosida bu birliklarning gapdagi o‘rniga nisbatan nokategorik belgilari aniqlanadi.

Tayanch so‘zlar: matn, toponimlar, sintaktik, tarkibiy qismlar, differensial, semantik xususiyatlar, qiyosiy tipologik, kategorik, funksional.

Аннотация: В данной статье сравнительно и типологически исследуются синтаксическое место топонимов в тексте английского и узбекского языков, дифференциальные синтаксические и дифференциальные синтаксико-семантические признаки, основанные на синтаксических отношениях между компонентами. При анализе синтаксических единиц в тексте путем деления их на синтаксисы в первую очередь определяются категориальные дифференциальные синтаксико-семантические признаки, а на их основе выявляются некатегориальные признаки этих единиц по отношению к их месту в предложении.

Ключевые слова: текст, топонимы, синтаксические, межкомпонентные, дифференциальные, семантические признаки, сравнительно-типологические, категориальные, функциональные.

Annotation: In this article, the syntactic place of toponyms in the text of the English and Uzbek languages, differential syntactic and differential syntactic-semantic features based on syntactic relations between components are studied comparatively and typologically. When analyzing syntactic units in a text by dividing them into syntaxes, first of all, categorical differential syntactic-semantic features are determined, and on their basis non-categorical features of these units are identified in relation to their place in the sentence. In addition to the analyzed sentence, when

determining syntaxes, the functional state of syntactic units that appear in the same place in another sentence is also compared.

Key words: text, troponins, syntactic, intercomponent, differential, semantic features, comparative typological, categorical, functional.

Jahon tilshunosligida toponimlar leksik-semantik va morfologik jihatdan tahlil qilingan. Toponimlarning strukturasi asosida leksik guruhlar ajratilgan, jumladan, OT+OT yoki SIFAT+OT qurilishiga ega bo'lgan toponimlarning muayyan joy nomlarini anglatishiga ko'ra kichik guruhlari farqlangan; toponim tarkibidagi ko'plik qo'shimchalarining ishlatilishiga ko'ra, yasovchi qo'shimchalar ishtirokiga ko'ra ham guruhlantirilgan. Bunday tahlillarning barchasida toponimlar matndan tashqarida, alohida-yakkalikda tahlil qilgan. Bizning maqolamiz esa, toponimlarni matn tarkibida sintaktik va sintaksem tahlil qilishga bag'ishlanadi. Shunday ekan, biz mazkur maqolamiz jarayonida foydalanadigan lingvistik tadqiqot metodlari haqida ma'lumot berib o'tishni joiz deb topdik.

Gapning sintaktik tahliliga tilshunoslar turlicha yondashganlar. Bir qator tilshunoslar amaliy va nazariy grammatikalarida gap strukturasi sintaktik tahlilini gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratishni afzal biladilar [2, 124].

Ayrim inglizshunos olimlar gap tarkibida faqat egani farqlab, gapning boshqa bo'laklarini fe'lga qo'shib yuboradi. Jumladan, X.Vaytxol fe'lga bog'lanib kelgan to'ldiruvchilarni *inner complement* va *outer complement* atamalari asosida sintaktik tahlilni taklif qiladi [11, 36-40], P.Roberts esa gap strukturasi ishtirok etgan birliklarning morfologik ifodasiga ko'ra modellashtirishni ilgari suradi [9, 251].

Boshqa bir guruh tilshunoslar faqat bosh bo'laklarni tan olib, ikkinchi darajali bo'laklarni 'Modifiers' atamasi bilan morfologik jihatdan quyidagicha tasniflaydi: a) attributive adjective modifiers, which modify a noun or a pronoun; b) objective modifiers, which modify a verb, an adjective or an adverb; c) adverbial modifiers, which modify a verb, an adjective or another adverb [7, 124]. R.W.Zandvoort esa ikkinchi darajali bo'laklarni 'adverbial adjuncts' [12, 217] deb ataydi.

Yuqorida qayd qilingan mulohazalardan bilish mumkinki, gapning bo'laklari to'liq e'tirof etilganiga qaramay, ikkinchi darajali bo'laklar masalasida tilshunoslar hozirgacha ham aniq tayanch fikrga kelmagan.

Mantiq tilshunoslari gap tarkibidagi birliklarni, ya'ni ega o'rniga "subyekt", kesim o'rniga "predikat" kabi lingvistik atamalarni qo'llab, gapni tahlil qilishni tavsiya qiladi [8, 208].

Lekin bu borada o'zbek tilshunosi A.Nurmanovning ta'kidlashicha sistem tilshunoslikda gapning struktur elementlari gap bo'laklari yoki sintaktik pozitsiya, propozitiv strukturasi elementlari obyektiv reallik stukturasi nisbatan izomorflik,

kommunikativ (aktual) struktura tema [ma'lum] va rema [yangi], modal strukturasi esa obyektiv va subyektiv munosabatlar nuqtayi nazaridan o'rganiladi.

N.Q.Turniyozovning fikriga e'tibor qaratsak, hozirgi paytda biz foydalanayotgan ega va kesim tushunchalari subyekt va predikat atamaları bilan almashtirilib ishlatilishi ularning mantiqiy kategoriyalar ekanligi izoh talab qilmaydi, albatta. Gapning ikkinchi darajali bo'laklarini tashkil etuvchi to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi tushunchalar ham sof grammatik kategoriyalarni taqozo etmaydi. Ular semantik nuqtayi nazardan ahamiyat kasb etadi. Ana shulardan kelib chiqib, ayni paytda amalda bo'lgan gapning sintaktik strukturasi tahlili bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalarni izohtalab deb bilamiz.

Ta'kidlash joizki, ushbu nazariy qarashlar sintaksisning rivojlanishiga yoki boyishiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilganiga qaramasdan, yuqorida qayd qilingan mulohazalardan ma'lumki, gap strukturasi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish tamoyillarini va ularni tahlil qilish lingvistik metodlarini to'liq aniqlab bera olmaydilar. Gapning sintaktik tahliliga tilshunoslarning turlicha yondashuvlaridan xulosa qilib aytganda, har bir gap bo'lagining morfologik va sintaktik xususiyatlarini o'rganish jarayonida, ularning so'z turkumi bilan ifodalanishi, leksik birliklarning shakli va boshqa sintaktik birliklar bilan bog'langan sintaktik aloqasi inobatga olinishi zarurdir, degan fikrdamiz.

Yuqorida qayd etilgan lingvistik metodlar qatorida qiyosiy yoki chog'ishtirma tilshunoslik mustaqil nazariy va amaliy fan bo'lib, u qardosh bo'lgan va qardosh bo'lmagan tillar tizimining barcha sathlarini qiyosiy o'rganishga imkon yaratadi. Ammo hozirgi paytgacha ushbu predmet haqida tilshunoslar tomonidan bir to'xtamga kelinmagan.

Lingvistik tipologik tadqiqot obyektiga ko'ra J.Bo'ronov qiyosiy tipologiyani quyidagi bo'limlarini farqlaydi: "a) genetik tipologiya; b) areal tipologiya; d) qiyosiy tipologiya; e) struktur tipologiya" [1, 33].

Lingvistik tipologiya ifoda planidan kelib chiqqan holda formal tipologiyani o'z ichiga olsa, mazmun planidan kelib chiqilsa, semantik tipologiyani o'z ichiga oladi. Tanlangan tadqiqot til materialini va til sathiga bog'liq holda lingvistik tipologiya quyidagi til qatlamlarini qamrab oladi: fonologik, fonetik, morfologik, leksik va sintaktik.

Mazkur maqolamizda ingliz va o'zbek tillari matn tarkibida qo'llanilgan toponimlar ifodalovchi sintaktik birliklarni sintaktik sathda qiyosiy-funksional va sintaksem tahlil qilish bilan cheklanamiz.

Turli tizimli tillar doirasida qiyosiy tahlil qilish orqali juda ko'p differensial belgilarni aniqlash mumkin. Ta'kidlash joizki, tipologik nuqtayi nazardan qiyoslash jarayonida differensial belgilarni sistemalashtirishda til sathini bir-biridan chegaralash maqsadga muvofiqdir. Ma'lum til materialini qiyosiy o'rganishda tadqiqot uchun

tanlangan obyektning sintagmatik va paradigmatic jihatdan chegaralash mumkin, ya'ni umumiy til sistemasidan bir qancha quyi sistemalar sintagmatik va paradigmatic chegaralash jarayonida ajratiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlarning barchasi sintaktik tipologiyaning turli tomonlarini o'z ichiga olgan. Ushbu ishlarda qiyoslash uchun asosiy birliklardan so'zlar, so'z birikmalari va gap strukturalari obyekt qilib olingan. Sintaktik tipologiyada toponimlarni so'z birikmalari sathida yoki gap sathida qiyoslash kutilgan natijalarni beradi.

T.Milevskiy tillarni farqlash jarayonida ularni konsentrik gaplarga ega bo'lgan tillar va ekotsentrik gaplarga ega bo'lgan tillarga ajratadi [4, 30], Y.Kurilovich tillarda erigativ konstruksiyalarni tadqiq qilsa [3, 106], N.Z.Gadjiyeva aglyutinatsiyaning o'zaro munosabatlari muammosiga va turkiy tillarning sintaktik qurilishiga e'tiborini qaratadi V.S.Xrakovskiy esa sintaktik munosabatlarni sintaktik qatlamda tadqiq qilishda aniq tamoyillarga diqqatini qaratadi, chunki ushbu sintaktik munosabatlar gap tizimi va uning qurilmalarini tashkil etadi.

Tillarni qiyosiy tipologik jihatdan o'rganishning rivojlanish tarixiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ingliz-o'zbek, ingliz-qoraqalpoq, nemis-o'zbek, ingliz-o'zbek-rus, nemis-o'zbek-rus, fransuz-o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish faol rivojlanganining guvohi bo'lamiz. O'.Q.Yusupovning ta'kidlashicha, Buning asoschisi Mahmud Qoshg'ariy hisoblanadi. Atoqli tilshunoslar Y.D.Polivanov, A.A.Abduazizov, J.Bo'ronov, O'.Q.Yusupov, M.A.Abdurazzoqov, M.J.Jusupov, M.Rasulovlar bu soha rivojiga katta hissa qo'shishdi. Jumladan, tillarni qiyosiy o'rganishda muhim natijalarga erishildi. J.Bo'ronov tomonidan qiyosiy tilshunoslikning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lsa [1,128]. O'.Q.Yusupov esa aniq tillar misolida qiyosiy-tipologik lingvistikaning nazariy asoslarini yaratib, qiyosiy tahlil jarayonida o'n sakkiz parametrga e'tibor berish lozimligini ta'kidlaydi [10, 20-21].

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosalarga kelish mumkin: turli tizimli tillar sistemasini qiyosiy o'rganish sof nazariy lingvistik sohani qamrab olish bilan birga amaliy-uslubiy maqsadni ham o'z ichiga oladi hamda tadqiqot jarayonida nazariya bilan amaliyot o'rtasida yaqin bog'lanishni vujudga keltiradi, ular o'rtasidagi o'xshashlik va noo'xshashlik tomonlarini inventarizatsiya qilish chet tilini chuqurroq o'rganishga va tushunishga katta imkoniyat yaratadi. Tillarni qiyosiy o'rganishga bunday yondashuv metodi til rivojlanishida, qiyoslanayotgan tillar bir-birini boyitishda hamda tillararo aloqalarini, ularning qardoshligi va qardosh bo'lmagan darajalarini atroflicha o'rganishga imkoniyat yaratadi.

Mazkur maqolamizda ingliz va o'zbek tillari matn tarkibida toponimlarning sintaktik o'rni, komponentlararo sintaktik aloqalar asosida differensial sintaktik

hamda differensial sintaktik-semantik belgilari qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi.

Ushbu ishimizda prof. A.M.Muxin tomonidan yaratilgan “Yadro predikativ, subordinativ, koordinativ, appozitiv” sintaktik aloqalar bazasida tanlangan obyekt qiyosiy-funksional tadqiq qilinadi, chunki qayd etilgan sintaktik aloqalar qator ilmiy ishlarda samarali foydalanilib kelinmoqda va kutilgan natijani bermoqda.

A.Muxin gap strukturasi komponentlar va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish metodini ishlab chiqdi. Qayd etilgan lingvistik metod uning izdoshlari tomonidan til birliklarini sintaktik sathda differensial sintaktik hamda sintaktik-semantik belgilarini aniqlash va ularni qiyosiy funksional tadqiq etishda keng joriy etilmoqda [5, 113].

Bu o‘rinda prof. A.M.Muxinning quyidagi fikrini eslatish lozim: “Gap strukturasi komponentlarga ajratib tahlil qilish, ya’ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlash hamda ularning bir-biridan farqini ochib tahlil qilish struktural sintaksisning obyekti hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo‘nalishda sintaksemalarga ajratib tahlil qilish funksional sintaksisning vazifasiga kiradi” [6, 154]. Gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarni gap bo‘laklariga ajratib tahlil qilish emas, balki komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilish sintaktik tahlilning asosiy mohiyatini ochib beradi.

Gaplarni mazkur lingvistik metodlar yordamida tahlil qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: birinchidan, gap tarkibidagi sintaktik birliklarning shakliy va mazmuniy xususiyatlarini o‘rganish mumkin; ikkinchidan, gaplarni sintaktik va semantik jihatdan tasniflashni asoslab beradi; uchinchidan, gap tarkibidagi birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish jarayonida sistem munosabatlarni sintaktik qatlamda o‘rganishga da’vat etadi. Chunki har bir sintaksemaning paradigmatic qatorini aniqlashda tadqiqotchiga keng imkoniyat yaratadi; to‘rtinchidan, modellashtirish va transformatsiya metodlaridan foydalanishga keng yo‘l ochib beradi. Shuningdek, sintaksemalarning sistem munosabatlarini, ularning variantlarini aniqlash turli tizimli tillarda toponimlarning sintaktik o‘rni va ifodalagan sintaksemasini qiyosiy tadqiq qilishga asosiy baza sifatida xizmat qiladi.

Xullas, mazkur ishimizda ingliz va o‘zbek tillari matn tarkibida toponimlar qatnashgan gaplarni komponentlarga ajratib tahlil qilishda ularning sintaktik aloqalarini aniqlab, komponentlarning differensial sintaktik belgilari hamda ularning gapdagi sintaktik o‘rnini aniqlash sintagmatic yo‘nalishda qarama-qarshi qo‘yish yoki kontrast usuli, o‘rin almashtirish, tushirib qoldirish, qo‘shimcha qilish orqali amalga oshiriladi. Matn tarkibidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, avvalambor, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlanib, ular asosida ushbu birliklarning gap tarkibida tutgan o‘rniga ko‘ra nokategorial belgilari ochib beriladi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan

tashqari, boshqa gap tarkibidagi bir xil o'rinda kelgan sintaktik birliklarning funksional maqomi ham qiyoslanadi.

ADABIYOTLAR

1. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков. – Москва: Высшая школа, 1983. – 268 с.
2. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. – Москва: Изд-во литературы на иностр. яз., 1956. – 350 с.
3. Курилович Е. Очерки по лингвистике. – Москва: Наука, 1963. – 168 с.
4. Милевский Т. Предпосылки типологического языкознания // Исследования по структурной типологии АН СССР. – Москва, 1963. – 280 с.
5. Мухин А. М. Функциональный синтаксис. – СПб., 1999. – 184 с.
6. Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – СПб., 2007. – 198 с.
7. Curme G.O. A grammar of the English Language. Vol. 2-3. London – New-York: 2006. – 240 p.
8. Kempson R.M. Semantic Theory. Cambridge University Press, 2007. – 440 p.
9. Roberts P. English Syntax: A programmed instruction to transformational Grammar: New-York: Hozcourt, Brace and world, 2008. – 524 p.
10. Yusupov U.K. Teoriticheskie osnovy sopostovitelnoy lingvistiki. – Tashkent: Fan, 2007. – 126 s.
11. Whitehall H. Structural Essentials of English. – New-York, 1956. – 394 p.
12. Zandvoort R.W. A Handbook of English Grammar. – Groningen, 1998. – 436 p.

NEMIS TILI IKKINCHI CHET TILI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Q.M.Begmatov PhD,dots.v.v.b.
SamDChTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada chet tili o'qituvchisining kasbiy kompetentligining turli xil tarkibiy qismlari, ularning kasbiy yo'naltirilgan madaniyatlararo kompetentligini baholash mezonlari hamda nemis tili o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: kasbiy faoliyat, kompetentlik, uslubiy kompetensiya, psixologik-pedagogik kompetensiya, pedagogik mahorat, kasbiy tafakkur.

Annotation. This article discusses the professional activity of a foreign language teacher, the competition of various products, and the professional and pedagogical activity of the teacher according to their professional directions.